

## F. NAYTINGEYL VA V.XENDORSONNI HAMSHIRALIK ISHIDA TUTGAN O'RNI

**Qo'shmatiy Gulmira**

*Marg'ilon Abu Ali ibn Sino nomidagi  
Jamoat salomatligi tibbiyot texnikumi o'qituvchisi*

«Hamshiralik ishi»- bemorni qurshab turgan muhitini, uning sog'ayish yo'lida qo'llash uchun yo'naltirilgan harakatidir.

**F.Naytengel**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Florens Naytingeyl va Virjiniya Xendersonni hamshiralik ishida tutgan o'rni taxlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Ilmiy asos, jelatina, epidemiya, ijtimoiy, psixologik, model.

Florens Naytingeyl 1820 - yil 12 - mayda Florensiyada aristokratlar oilasida dunyoga kelgan. 1851 - yilda Germaniyada pastor F.Flenderning hamshiralalar uyushmasida tahsil olgan. Londonda o'qituvchilar kasalxonasida ishlaydi va u yerda vabo epidemiyasida jasorat ko'rsatib el nazariga tushadi.

U Qrim urushida qatnashib, Britan soldatlariga parvarish ishlarini olib borgan va hamshiralarga rahbarlik qilgan. Britan shifokorlarining qarshiliklari va kulishlariga qaramay, o'zining guruhi bilan o'z ishida davom etdi va soldatlar orasidagi o'limni kamaytirdi.

Hozirgi hamshiralik ishiga 1860 - yil 9 - iyulda asos solingan. U 15 ta talaba asosida guruh tashkil qilib, Londonning muqaddas Foma kasalxonasida ish yuritdi. U uqitish jarayonining asosiy tamoyillarini ishlab chiqdi.

Naytingeyl tamoyillari:

Nazorat qilish (boshqaruv guruhini tayyorlash)

Ilmiy asoslari (nazariy – amaliy o'qitish)

Hamshiraning shahsiy sifatlari (ma'naviy va ruhiy)

Naytingeyl qilgan ishlar. Hamshiralik ishiga kasb sifatida e'tibor berdi.

Sog'liqni saqlashda atrof muhitning muhimligi. Hozirgi zamon hamshiralik ishiga asos soldi.

Hamshiralik ishida uzlusiz ta'lim olish lozimligini ta'kidladi.

1912 - yilda Liga Qizil yarim oy jamiyati tomonidan Florens Naytingeyl nomiga medal ta'sis etildi.

Hamshiralik ishini F. Naytingeyldan so'ng V. Xenderson davom ettirdi.

Hamshiralalar orasida V.Xenderson nazariysi juda mashxur bo'lgan, uning ta'kidlashicha, ayrim shaxslar, bemorlar va sog'lom kishilarni parvarishlash hamshiraning asosiy vazifasidir va bu vazifa bemorning o'z salomatligiga bo'lgan munosabatini baholashda yetarli darajada kuch, iroda hamda bilimga ega bo'lgan holda o'z sog'ligini

mustahkamlash uchun bemorga o'zi bajara oladigan ishlarni amalga oshirishida yordam berishdan iboratdir.

Virjiniya Xenderson 1897 - yilda Missouri shtatining Kanzas-Siti shahrida tug'ilgan.

V. Xenderson modeli:

Bu model 1955 - yilda amerikalik hamshira V.Xenderson tomonidan yaratilgan bo'lib, parvarish orqali biologik, psixologik va ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilishiga qaratilgan. Ushbu modelda parvarishni rejalshtirish va amalga oshirishda bemorlarning ishtiroki zaruriy shart hisoblanadi. V. Xenderson modeli bo'yicha ehtiyojlar quyidagicha:

1. Normal nafas olish.

2. Yetarli miqdorda taom va suyuqlik qabul qilish.

3. Organizmdan keraksiz mahsulotlarni chiqarib tashlash.

4. Harakat qilish va zarur xolatni egallash.

5. Uxlash va orom olish.

6. Mustaqil kiyinish va yechinish, kiyim-kechak tanlash;

7. Iqlimga mos kiyinish va tashqi muhitni o'zgartirish yo'li bilan tana haroratini normada tutib turish.

8. Shaxsiy gigiyenaga rioya qilish, tashqi ko'rinishga ahamiyat berish.

9. O'z xavfsizligini ta'minlash va boshqalarga xavf tug'dirmaslik.

10. O'z xissiyotlari va fikrlarini bayon etib, boshqalar bilan muloqotda bo'lish.

11. Diniga munosib marosimlarni bajarish.

12. Ko'ngli tusagan ish bilan shug'ullanish.

13. Dam olish, o'yin va ko'ngil ochar tadbirdarda ishtirok etish.

14. Normal rivojlanishga yordam beradigan qiziquvchanlikni qondirish.

1953 - yil V.Xenderson Yeleskoydagi hamshiralik ishi mакtabida ishlagan, ushbu xizmatlari uchun V.Xenderson juda ko'plab unversitetlar tomonidan turli xil order va mukofotlarga ega bo'lган.

Xenderson nazariyasi 20 ta tilda nashr qilindi, ushbu nazariya bugungi hamshiralikda o'rni juda katta bo'lib, avvalom bor reja asosida tuzilgan bemorlarni parvarishlashda juda katta qulaylik yaratadi. Hamshiralik ishi bo'yicha xalqaro kutubxonaga uning nomi qo'yilgan.

Hamshiralik ishi falsafasi. Hamshiralik ishi o'ziga xos mustaqil ilm va ajoyib san'at bo'lib, hamshira vazifalari, odam shaxsi, atrof – muhiti va sog'lik bilan bog'lik masalalar uning falsafiy o'zagini tashkil qiladi.

Hamshira falsafasi mazmuni. Demak, hamshira oddiy ijrochi emas. U tibbiyat jaxasida millatimizning obro'si va madaniyatini ko'rsatuvchi va ayni chog'da, o'ta ma'sul shaxsdir. Olamning bo'laklarini o'zaro bog'lik, bir butun holda o'rganadigan fan – falsafadir. Har bir kishi, har bir bemor butun bir olam.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. H.I.Shukurov, S.Q.Qanotov. Jamoada hamshiralik ishi. Toshkent - 2010. – 248b. 2.
- K.U. Zakirova, D.U. Toxtamatova Hamshiralik ishi asoslari. Toshkent – 2010. – 78b.
3. Gadaev A., Salihodjaeva R.K., Rahmonov N.Sh. Hamshiralar faoliyatida profilaktika. T. 2012.-160b.